



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT MEDICAL ACADEMY

100109, Toshkent sh., Farobiy ko'chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2024 yil "7" oktabr

01-21208 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig'ilishining
2-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«25» sentabr 2024-yil

Raislik qiluvchi: Sh.A. Boymuradov Toshkent tibbiyot akademiyasi
v.v.b rektori, professor

Qatnashdilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasining
Ilmiy kengashi a'zolari
(ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

1. Akademiya kafedralarida o'quv jarayonida **HEMIS** tizimini yuritilishi va faoliyati bo'yicha hisobot.

Ma'ruzachi – O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Feruza Xusanovna Azizova.

2. Talabalarni turar joylar bilan ta'minlash va yaratilgan sharoitlar to'g'risida.

Ma'ruzachi – Yoshlar masalalari va ma'nnaviy ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Turdikul Akramovich Bobomuratov.

3. Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma'ruzachi – Kengash kotibi Guli Amindjanovna Ismailova.

4. Dissertatsiya, monografiya, o'quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig'ini tasdiqlash.

Ma'ruzachilar – O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo'yicha "Akademiya kafedralarida o'quv jarayonida **HEMIS** tizimini yuritilishi va faoliyati bo'yicha hisobot" mavzusi bo'yicha Toshkent tibbiyat akademiyasi (keyingi o'rinnlarda – Akademiya) O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Feruza Xusanovna Azizovaning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

1.1. HEMIS tizimi, uning mazmun-mohiyati, o'qish jarayonidagi o'rni haqida Professor-o'qituvchilar va talabalar uchun muntazam seminarlar tashkil etilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, fakultet dekanlari.

Muddat: har semestrda.

1.2. Tegishli har bir bo'linma, dekanat va kafedralar tomonidan kerakli ma'lumotlarni "HEMIS" platformasiga o'z vaqtida joylashtirib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Registrator ofisi direktori F.B.Saloxiddinov, Raqamlı ta'lim texnologiyalari markazi (RTTM) boshlig'i A.K.Musaxonov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024-yil sentabr-oktabr.

1.3. Elektron jurnalni to'liq joriy etilishi bo'yicha ishlar jadallashtirilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Raqamlı ta'lim texnologiyalari markazi (RTTM) boshlig'i A.K.Musaxonov, Registrator ofisi direktori F.B.Saloxiddinov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.4. Professor-o'qituvchilarning malaka oshirish va lavozimlarga tanlovdan o'tish ma'lumotlarini "HEMIS" platformasiga kiritilishi va monitoringi olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Xodimlar bo'limi boshlig'i N.A.Ismatullayeva, Raqamlı ta'lim texnologiyalari markazi (RTTM) boshlig'i A.K.Musaxonov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.5. Platformaga joylashtirilgan o'quv resurslari (kalendor-tematik reja, sillabus, tarqatma materiallar, amaliy mashg'ulot va ma'ruzalarning prezентatsiyalari, audio-, videomateriallar, nazorat topshiriqlari, talabalarning mustaqil ishi bo'yicha uslubiy tavsiyalar)ning to'liqligi va sifati doimiy ravishda monitoringi olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I. Turaqulov, Raqamlı ta'lim texnologiyalari markazi (RTTM) boshlig'i A.K.Musaxonov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.6. Talabalar bilimini xolis va adolatli baholanishini ta'minlash maqsadida har bir fan bo'yicha talabalar bilimini baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqilishi va har darsda baholash natijalarini talabalarga e'lon qilinishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.7. Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda «Lecturio», «CyberPatient» interaktiv ta’lim platformalaridan muntazam foydalanishlari ta’minlansin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.

1.8. Kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan nashr etilgan ilmiy va o‘quv-uslubiy mahsulotlarni o‘z vaqtida “HEMIS” platformasiga joylashtirilishini ta’minlansin va ularni kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanishi inobatga olinsin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.

1.9. Professor-o‘qituvchilarning ilmiy faoliyati bo‘yicha reyting ma’lumotlari monitoringini yuritilishi yo‘lga qo‘yilsin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i R.I.Turaqulov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.

1.10. Akademianing barcha kurslarida o‘quv jarayonini sifatli tashkil etish va to‘liq raqamlashtirish maqsadida to‘liq HEMIS tizimiga o‘tkazilishi, o‘quv jarayonida talabalarning o‘zlashtirishi va davomatini to‘liq HEMIS platformasida qayd etib borilishi, elektron jurnal va qaydnomalarni o‘z vaqtida to‘ldirib yuritilishi, ta’lim resurslarini to‘liq kiritilishi va raqamli imzo orqali barcha tizimlardan unumli foydalanimishi ta’minlansin.

Ma’sul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Registrar ofisi direktori F.B.Saloxiddinov, Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi (RTTM) boshlig‘i A.K.Musaxonov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024-yil sentabr-oktabr.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo‘yicha “Talabalarni turar joylar bilan ta’minlash va yaratilgan sharoitlar to‘g‘risida” mavzusi bo‘yicha Yoshlar masalalari va ma’naviy ma’rifiy ishlari bo‘yicha birinchi prorektor Turdikul Akramovich Bobomuratovning ma’lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

2.1. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentyabrdagi 605-son qaroriga muvofiq quyidagilar amalga oshirilsin:

Akademiyaga talabalar safiga qabul qilingan va talabalar turar joyi bilan qamrab olinmagan Akademiyadan uzoq joylashgan hududlardan kelgan birinchi bosqich talabalariga, Akademiyaga ushbu maqsadlarda ajratilgan mablag‘lar doirasida sentabr va oktabr oylari uchun ijara shartnomasi talab etmasdan oylik ijara to‘lovining bir qismini qoplab berilsin hamda belgilangan tartibda ijara shartnomasi taqdim etgan talabalarga noyabr oyidan to‘lovlar davom ettirilishini ta’minlasin.;

ijara huquqi asosida yashayotgan, biroq ijara to‘lovlar ushbu qarorda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplanadigan talabalarning 60 foizidan ortgan qismi uchun oylik ijara to‘lovining bir qismini Akademiya tomonidan

tasdiqlangan mezonlar va tartib asosida moliyaviy imkoniyatdan kelib chiqib budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan qoplab berilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i O.U.G‘opov, Bosh xisobchi B.I.Alijonova, Talabalarni turar joy bilan ta’minalash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo‘lim boshlig‘i A.U.Aliqulov.

Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.

2.2.Talabalar turar joylarida “Kafedra kunlari” doirasida professor-o‘qituvchilar tomonidan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, fanlar yuzasidan seminarlar, davra suhbatlari tashkil etilsin.

Mas’ul:Fakultet dekanlari (I.O.Otajonov, A.A.Irnazarov, A.A.Xamraev, F.I.Salomova, S.I.Aliev, J.J.Tursunov), Talabalar turar joyi direksiya direktori S.O‘.Ruzmetov.

Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.

3.Kun tartibining keyingi masalasi “Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash” bo‘yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova - 14.00.01 – akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo‘yicha professor ilmiy unvoniga talabgor Abdullayeva Lagiya Mirzatullayevna, 14.00.31 – Urologiya ixtisosligi bo‘yicha professor ilmiy unvoniga talabgor Giyasov Shuxrat Iskandarovich hamda dotsent ilmiy unvoniga talabgorgar: 14.00.03 – endokrinologiya ixtisosligi bo‘yicha Azizova Pokiza Xusanovna, 14.00.27 – Umumi xirurgiya ixtisosligi bo‘yicha Xolov Xusniddin Amonullayevich, 14.00.11 – Teri va tanosil kasalliklar ixtisosligi bo‘yicha Saipova Nodira Sagdullaevna, 14.00.07 – Gigiyyena ixtisosligi bo‘yicha Raximov Baxodir Baxtiyor O‘g‘li, 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosligi bo‘yicha Xidoyatova Muxlisa Raxmatillayevna, 14.00.15 – Patologik anatomiya ixtisosligi bo‘yicha Eshbayev Erkin Abduhalimovich, 14.00.07 – Gigiena ixtisosligi bo‘yicha Sobirova Dildora Ravshanovna nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma’lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a’zolarini tanishtirdi. So‘ng saylov o‘tkazildi (saylov hay’ati a’zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4. Kun tartibining keyingi masalasi “Dissertatsiya, monografiya, o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyatga tatbig‘ini tasdiqlash” bo‘yicha O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdilar (2- va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5.Turli masalalar bo‘yicha O‘quv ishlari buyicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i R.I.To‘raqulovlar so‘zga chiqdilar.

5.1. 2024/2025 o‘quv yili bo‘yicha Akademiya Ilmiy kengashi tarkibi tasdiqlansin (4-ilova).

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtal maxsus ta’lim vazirining 2011-yil 3-dekabrdagi 487-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasasining Ilmiy kengashi to‘g‘risida namunaviy nizom” asosida ishlab chiqilgan “Toshkent tibbiyot

akademiyasi Chirchiq filiali Ilmiy kengashi to‘g‘risida nizom” 5-ilovaga muvofiq; “Toshkent tibbiyot akademiyasi Chirchiq filiali Ilmiy kengashi a’zolari tarkibi”6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.3. Barcha magistratura yo‘nalishlari bo‘yicha magistr talabalarni ilmiy-amaliy ish (stajirovka) rejasni tasdiqlansin.

5.4.Toshkent tibbiyot akademiyasi Psixiatriya va narkologiya kafedrasini 2-kurs magistri Xakimova Jamila Alimovna 25-sentyabrdan 1-oktyabrga qadar Ispaniyaning Barselona shahrida bo‘lib o‘tadigan “Course on Leadership and Development for Young Psychiatrists” kursda o‘qib kelish uchun tavsiya etilsin.

5.5. Toshkent tibbiyot akademiyasi 2-son travmatologiya, ortopediya, HDJ va neyroxirurgiya kafedrasini 3-kurs magistri Jalolova Mohira Yaponiyaning Nagoya shahri, Fujita Health University Bantane Hospitalga 1-dekabrdan boshlab 2 oy muddatga stajirovkaga yuborilishi tavsiya etilsin.

5.6. Toshkent tibbiyot akademiyasi Urologiya kafedrasini dotsenti, t.f.n. Shomarufov Azizbek Baxodir o‘g‘lining “Telegram botlar (@Open_Sciencebot), boshqa keng tarqalgan messenjerlar va sotsial tarmoqlarning ilmiy va o‘quv maqsadlarda foydalanishdagi o‘rni va imkoniyatlari” mavzusidagi loyihasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

5.7.Akademiya barcha kafedralarining 9 oylik reyting mahsulotlari tahlili yuzasidan har bir xodim kesimida yil yakunida o‘tkaziladigan reyting natijalarida kamomad aniqlangan xodimlarga chora ko‘rilishi to‘g‘risida kafedra mudirlari ogohlantirilsinlar.

Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Ijrochi: G.Ismailova
ID: 553445
Sana: 07.10.2024